

1970-1980 YILLARDA O'ZBEKISTON QISHLOQLARIDA BOLALAR YUQUMLI KASALLIKLARI PROFILAKTIKASI

Tajimirzaev Elyorbek Akramovich

Andijon davlat pedagogika instituti Tarix
kafedrası dotsenti, t.f.b.f.d. (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22841926>

Maqolada 1970-1980 yillarda O'zbekiston qishloqlarida bolalar yuqumli kasalliklari profilaktikasi arxiv hujjatlari, ilmiy adabiyot va davriy matbuot materiallari asosida statistik ma'lumot orqali yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: qishloq, shifoxona, kolxoz, bolalar kasalliklari, tuman, юқумли касалликлар, вирусли гепатит.

The article highlights the prevention of childhood infectious diseases in rural areas of Uzbekistan in the 1970s and 1980s through statistical data based on archival documents, scientific literature, and periodical press materials.

Keywords: village, hospital, collective farm, children's diseases, district, infectious diseases, viral hepatitis.

В статье на основе архивных документов, научной литературы и материалов периодической печати посредством статистических данных освещена профилактика детских инфекционных заболеваний в сельской местности Узбекистана в 1970-1980 годах.

Ключевые слова: село, больница, колхоз, детские болезни, район, инфекционные заболевания, вирусный гепатит.

Ministrlar sovetining 1972-yil 25-iyuldagi "Respublika aholisi o'rtasida tuberkulyoz kasalligiga qarshi kurashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 317-son qarori qabul qilinadi. Maktab yoshidagi bolalarni ta'limdan ajratmaslik uchun Sirdaryo oblastining Guliston rayonida va Qashqadaryo oblastining Shahrisabz rayonida 350-o'rinli maktab-internat qurilgan. Shirin posyolkasida 60 o'rinli yasli-bog'cha ishga tushirilgan. Shahrisabz va Yangiobod rayonida ham 50 o'rinli bog'chalar ishlab turgan [1.1]. Respublikaning Surxondaryo, Farg'ona, Qashqadaryo oblastlarining qishloq joylaridagi ayrim uchastka shifoxonalari tumanlararo bolalar shifoxonalariga aylantirilgan. Buning natijasida o'n yil ichida bolalar shifoxonalari soni 2 barobardan ziyodga ortib 25 tadan 55 taga yetgan. Bolalar bo'limlari soni esa 156 tani tashkil etdi. Bolalarga ko'rsatiladigan ambulatoriya-poliklinika yordami ham kuchaytirildi. 1976-yilga kelib, bolalar maslahatxonalari soni 1966-yilga nisbatan 187 taga ko'paydi va 549 taga yetdi. Bu 1924-yildagiga qaraganda 199 barobar yoki 1940-yildagiga nisbatan 2,9 barobar ko'p demakdir [2.45].





Ular bilan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab olish foizi 1970-yildagi 13,1 foizdan 1975-yilda 20,0 foizga ko'tarildi. Tipovoy binolarda joylashgan muassasalarning umumiy sondagi ulushi 1975-yilda 50 foizdan ko'proqni tashkil etdi. Bundan tashqari, yozgi davrda qishloqlardagi mavsumiy yaslilarda kolxozchilarning bolalari uchun 250 mingdan ortiq joy tayyorlangan. Surunkali pnevmoniya bilan og'rgan bemorlar uchun Shohimardonda, virusli gepatit bilan kasallanib o'tgan maktabgacha yoshdagi bemor bolalarni bosqichma-bosqich davolash uchun ixtisoslashtirilgan sanatoriylar tashkil etilgan. Sanatoriy tipidagi 8 ta bolalar bog'chasi ochildi. 1972-yildan boshlab respublikada ilk bor surunkali tanzillit va revmatizm bilan og'rgan bolalar uchun 14 ta sanatoriy tipidagi lager, 1 ta sil kasalligiga chalinmagan o'pka kasalliklari bo'lgan bolalar uchun va 1 ta oshqozon-ichak kasalliklari bo'lgan bolalar uchun faoliyat ko'rsata boshladi [3.128] 1975-yilda O'zbekistonda 8 945 o'rinli 44 ta bolalar sanatoriysi faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan sil kasalligi bilan og'rganlar uchun – 6 335 o'rinli 28 ta, revmatizm bilan og'rganlar uchun — 1 635 o'rinli 9 ta, o'pkaning surunkali kasalligi bo'lgan bolalar uchun – 4 ta, shuningdek, surunkali dizenteriya, poliomielit asoratlari bo'lgan va nevrologik bemorlar uchun bittadan sanatoriy faoliyat yuritgan. 1970-yildan boshlab bosh miya falaji bilan og'rgan bolalarni davolash uchun Namangan viloyatidagi «Chortoq» sanatoriysida 50 o'rinli ixtisoslashtirilgan bo'lim ochildi. Bundan tashqari, shu yerning o'zida 200 o'rinli bolalar travmatologiya bo'limi tashkil etildi [2.48].

Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, Andijon oblastida qorin tifi va paratif kasalligi tarqalgan. 1973-yil bahorida kasallik eng ko'p tarqalgan "Moskva" kolxozida vodoprovod ishlamaganligi sababli aholi ariq va hovuz suvlaridan suv ichishgan hamda uy-ro'zg'or ehtiyojlari uchun ishlatgan. Shu kolxozning Qiyali qishlog'ida o'rnatilgan 45 ta kolonkadan atigi 3 tasi ishlagan. Shuningdek, "Leningrad" kolxozidagi 3 ta vodoprovoddan faqat 1 tasi ishlagan, u ham ta'mir talab ahvolda bo'lgan. 25 ta kolonkadan atigi 10 tasi ishlab turgan. "Kommunizm" kolxozida 70 ta kolonkadan 59 tasi ishlamaganligi tufayli toza ichimlik suvi bilan aholini ta'minlash muammolardan biri edi [4.47] va aholi orasida yuqumli kasalliklarning tarqalishiga olib kelgan asosiy sabablardan biri bo'ldi. Qorin tifi va paratif kasalligiga asosan maktab yoshigacha bo'lgan bolalar va maktab o'quvchilari chalingan.

1973-yilda Farg'ona viloyatida virusli gepatit bilan kasallanish eng yuqori darajaga chiqqan edi. Ya'ni 10 000 ming kishiga 699 nafar bemor to'g'ri kelgan. 1972-yildagi nisbatan 27 foizga o'sgan edi. Viloyatda shahar aholisining ushbu kasallikka chalinishi qishloq aholisiga nisbatan yuqori bo'lib shaharlarda 850,9



qishloqlarda 699,2 nafarni tashkil etgan. 1973-yilda viloyatda Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon shaharlari hamda Oxunboboev, Leningrad rayonlarida kasallik viloyatning boshqa rayonlariga nisbatan o'rtacha viloyat ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan. 1972-yilga nisbatan 1973-yilda yasli yoshidagi tashkillashtirilgan bolalarning kasallanishi ikki barobarga oshgan. Bolalar bog'chalari yoshidagi bemorlar 28 foizga oshgan. Bemorlarning 99,9 foizi gosplitizatsiya qilingan [5.8].

Shuningdek, 1973-yilda oblastda 3 622 nafar kishi qizamiq kasalligiga chalingan bo'lsa, ularning 2 251 nafari, ya'ni 62 foizi shifoxonalarda davolangan. Qo'qon shahrida bu kasallik ancha keng tarqalgan bo'lib, 1 135 nafar kishi bu kasalga chalingan bo'lsa, viloyatdagi umumiy hajmning 31,3 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari Marg'ilon shahrida 641, Farg'ona rayonida 314, Leningrad rayonida 264, Bog'dod rayoni 261, Rishton 246, Oxunboboev 201 nafar kishi bu kasallikka chalingan. Bu kasallik bilan asosan bolalar kasallanib, ularning ichida yasli yoshidagi emlanmagan bolalar ko'pchilikni, ya'ni umumiy hajmdan 36,7 foizni tashkil etgan. Shuningdek bog'cha yoshidagi bolalar 18,2 foizni tashkil qilgan. Bolalar bog'chalaridagi yasli guruhidagi bolalardan 15,8 foizi, bog'cha yoshidagi bolalardan 11,8 foizi hamda kichik sinf o'quvchilari 16,4 foizni tashkil etgan. Ushbu kasallik dastlab bu kasallikka qarshi emlanmagan bolalar orasida paydo bo'lib, keyin emlangan bolalar orasida ham tarqalgan [5.76]. Bu kasallikdan 15 nafar bola vafot etgan [5.77].

O'zbekiston KP MK va O'zSSR Ministrlar Sovetining 1974-yil 27-maydagi 314-sonli hamda 1978-yil 24-martdagi 121-sonli qarorlari, Qashqadaryo oblasti sog'liqni saqlash boshqarmasining 1974-yil 12-iyuldagi 296-sonli va 1978-yil 11-avgustdagi 787-sonli «Respublikada onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilishni yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi buyruqlari, shuningdek, O'zSSR Sog'liqni saqlash ministrligi hay'atining bir qator qarorlari asosida viloyatda bolalar o'limini kamaytirish va vafot etganlarni ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan.

Viloyatda jami bolalar soni 463 949 nafarni tashkil etib, bu viloyat jami aholisining 47,7 foiziga teng bo'lgan. 1 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 18 220 nafarni (bolalar aholisining 8,2 foizini) tashkil qilgan. 1978-yilning 8 oyi davomida 20 959 nafar bola tug'ilib, 1 yoshgacha bo'lgan bolalar orasidagi o'lim ko'rsatkichi 1 047 nafarni tashkil etgan. 1977-yilning mos davrida – 1 075 nafar bola vafot etgan [6.302].

Bolalarga statsionar yordam ko'rsatish uchun Qashqadaryo oblastida bir qator muassasalar faoliyat ko'rsatgan. 2 ta toifalangan bolalar shifoxonalari, 6 ta moslashtirilgan binolarda joylashgan bolalar shifoxonalari, 26 ta markaziy tuman





shifoxonalari huzuridagi bolalar bo'limlari va qishloq uchastka shifoxonalaridagi 26 ta bolalar o'rinlari, 2 ta bolalar poliklinikalari va bolalar konsultatsiyalari. Viloyatda jami 1 740 ta bolalar koykasi mavjud bo'lib, shundan 845 tasi shaharlarda, 695 tasi qishloq joylarda joylashgan. Bolalar o'rinlari bilan ta'minlanganlik darajasi 10 000 aholiga 16,7 ni tashkil etgan. Viloyatda 147 nafar shifokor-pediatr faoliyat yuritgan.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi Boltiqbo'yi, Ukraina va Belorussiyaga nisbatan Markaziy Osiyo respublikalarida ko'p bo'lgan [7.111].

Ittifoq respublikalarida 0-2 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi statistikasi (1980-yil holatiga) [7.118]

1-jadval

	1000 ta tug'ilgan bolaga nisbatan o'lganlar soni			1000 ta tug'ilganga nisbatan tegishli yoshdagi o'lgan bola soni					
				1 yosh			2 yosh		
	Jami	Shahar	Qishloq	Jami	Shahar	Qishloq	Jami	Shahar	qishl oq
RSFSR	22.1	21.2	24.0	3.1	2.4	4.5	1.3	1.0	1.9
Ukraina	22.1	17.3	15.4	3.0	2.2	4.5	1.2	1.0	1.7
Belorussiya	16.6	15.3	18.2	1.9	1.4	3.1	0.8	0.6	1.1
O'zbekiston	47.0	44.4	48.1	17.8	10.4	21.1	4.7	2.7	5.7
Qozog'iston	32.7	28.9	36.4	9.4	4.8	3.8	2.8	2.0	3.5
Gruziya	25.4	24.3	26.5	5.0	2.1	8.2	1.6	1.0	2.2
Ozarbayjon	30.4	26.3	34.4	26.6	9.8	42.9	4.5	2.6	6.3
Litva	14.5	12.9	17.3	2.0	1.8	2.3	1.1	0.9	1.4
Moldaviya	35.0	29.6	38.4	4.2	3.0	4.9	1.9	1.4	2.2
Latviya	15.4	15.6	15.0	2.3	1.5	4.1	1.3	0.9	2.1
Qirg'iziston	43.3	32.3	48.4	25.3	9.2	32.6	5.9	2.6	7.3
Tojikiston	58.1	62.9	56.4	31.2	13.6	38.0	5.7	3.3	6.7
Armaniston	26.2	25.5	27.5	7.2	4.0	12.9	2.6	1.6	4.6
Turkmaniston	53.6	57.4	51.0	31.4	17.6	41.0	4.4	3.2	5.3
Estoniya	17.1	15.9	19.9	2.4	2.4	2.6	1.0	1.0	1.0

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1981-yil 10-yanvarda "O'zbekiston SSRda virusli gepatit, qorin tifi, tuberkulyoz, brusellez bilan kasallanish va bolalar o'limini kamaytirish choralari haqida"gi 284-sonli qarori qabul qilindi. Qashqadaryo viloyatining Ko'kdala, Tolimarjon, Bahoriston tumanlarida 50 o'rinli bolalar yuqumli kasalliklar dispanseri ochilgan [8.29].

Aholi orasida virusli hepatitning turli darajalari tarqalishda davom etgan davrda Toshkent oblast ijroiya qo'mitasi O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va O'zSSR Ministrlar Sovetining 1981-yil 31-martdagi «Virusli hepatit bilan kasallanishning oldini olish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida»gi 284-sonli qaroriga muvofiq, viloyatda muayyan ishlar amalga oshirilganini ma'lum qiladi. Ushbu masala yuzasidan O'zbekiston Kompartiyasi Toshkent viloyat komiteti va viloyat ijroiya qo'mitasining 1981-yil 8-maydagi 97-sonli tegishli qarori qabul qilingan. Shuningdek, 1981-1985-yillarga mo'ljallangan «Yuqumli kasalliklar va bolalar o'limining oldini olish hamda ularni kamaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar rejasi» ishlab chiqilib, tasdiqlangan [9.11].

Barcha sanitariya-epidemiologiya stansiyalarida virusli hepatitlarga qarshi kurashish bo'yicha epidemiyaga qarshi otryadlar tashkil etilgan. «V» hepatitining oldini olish maqsadida viloyat shahar va tumanlarida tibbiy instrumentlarni markazlashtirilgan holda sterillash bo'yicha 65 ta punkt faoliyati yo'lga qo'yilgan [10.14].

Qishloq joylardagi maktabgacha bolalar muassasalarida sanitariya-gigiena rejimiga rioya etish uchun zarur sharoitlarni yaratish maqsadida qo'shimcha 25 shtat birligi, shu jumladan 5 nafar tarbiyachi, 14 nafar enaga va 1 nafar katta tibbiyot hamshirasi lavozimlari joriy etilgan. Viloyatning 5 ta shahar va tumanida 695 o'ringa mo'ljallangan 7 ta bolalar bog'chasi hamda 4 ta sanatoriy tipidagi guruhlar tashkil etilgan [11.182].

1982-yilda Oqqo'rg'on tumanida 70 o'ringa mo'ljallangan 1 ta sanatoriy tipidagi bolalar bog'chasi ochildi. Shuningdek, 4 ta bolalar bog'chasi qoshida hepatit bilan og'rib o'tgan bolalar uchun sanatoriy guruhlari tashkil etildi. Ushbu bolalar bog'chalarida har yili 800 nafardan 1000 nafargacha bola sog'lomlashtirilgan [8.23].

XX asrning 80-yillarida O'zbekistonning eng og'riqli nuqtalaridan bo'lgan Orol bo'yi havzasidagi ekologik holat nafaqat respublika, balki ittifoq hukumatidan ham katta e'tiborni talab qilardi. Aholi tarqoq joylashgan bu hududlarga har oyda tibbiyot xodimlaridan iborat ishchi guruh jo'natib turildi. Olib borilgan tekshiruvlar natijasida Qoraqalpog'iston ASSRda aniqlangan bemorlarning 154 351 nafari ambulator, 17 130 nafari statsionar sharoitda sog'lomlashtirildi, 855 nafar bola, Xorazm viloyatidan 601 bola Toshkentga davolanish uchun yuborildi.

Aholining katta qismidagi moddiy qiyinchiliklarni hisobga olib, hukumati tomonidan bemorlarning Toshkent shahriga kelib davolanishlari uchun yo'l kira



haqini bepul qilish maqsadida 400 ming so'm mablag' ajratilgan. O'zbekiston Kasaba uyushmalari Soveti Orol bo'yining shimoliy tumanlaridagi bolalar uchun sanatoriy tipidagi pioner lagerlariga yo'l haqi to'langan holda 4 mingta bepul yo'llanma ajratgan.

XX asrning 80-yillariga xos bo'lgan, ta'lim, sog'liqni saqlash tizimiga "Qoldiq" siyosati asosida pul ajratilishi oqibatida Shumanay rayonida 5 ming porsiyaga mo'ljallangan sut oshxonasi, Beruniy rayonida 150 qatnovga mo'ljallangan poliklinika va 5 ming porsiyali bolalar sut oshxonasi, Mang'itda esa dorixona foydalanishga topshirilmadi [12.89].

O'zbekistonda 50-90-yillar davomida tibbiyot tizimi sinovlardan o'tdi. Asosiy – yosh bolalarni kasallikdan asrash, profilaktika ishlari oziq-ovqat bilan bog'liqligi masalasi faqatgina 90-yillarga kelib hal qilindi.

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1990-yil 15-yanvardagi 31-sonli «O'zbekiston KP MK byurosining 1989-yil 23-noyabrdagi «1990 yilda xalk ta'limi, madaniyat va sog'liqni saqlash tarmoqlarida ijtimoiy ahvolni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorining borishi haqida»gi qaroriga muvofiq, 120 kishidan iborat komissiya 1990-yilning 8-yanvaridan 12-yanvarigacha bo'lgan davrda Qoraqalpog'iston ASSR Ministrlar Soveti, viloyat ijroiya qo'mitalari va Toshkent shahar ijroiya qo'mitasi tomonidan umumta'lim maktablarining I-IV sinf o'quvchilarini bepul ovqatlantirishni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni ikkinchi marotaba tekshiruvdan o'tkazdi.

Viloyat, shahar va tuman ijroiya qo'mitalari huzurida ushbu ishlarni tashkil etish yuzasidan joylarda nazorat olib borish va amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha guruhlar tuzildi; savdo tashkilotlari bilan birgalikda oziq-ovqat mahsulotlariga ajratiladigan fondlar masalasi hal etildi. Nonushtalarni tashkil etish uchun ajratilgan xonalar aniqlandi, yuqori sinf o'quvchilari va o'qituvchilarning navbatchiligi yo'lga qo'yildi, maktablarga sut va tayyor mahsulotlarni yetkazib berish tartiblari o'ylab chiqildi, umumiy ovqatlanish korxonalari belgilab olindi.

Sirdaryo viloyatida Jizzax shahri, Voroshilov (hozirgi Baxmal), Do'stlik, Mirzacho'l tumanlari, Farg'ona viloyatida Oltiariq va Farg'ona tumanlari, shuningdek, Samarqand va Xorazm viloyatlaridagi bir qator xo'jaliklarda birlashtirilgan bazaviy korxonalar, sovxoz va kolxozlar mehnat jamoalarining qarori bilan har bir o'quvchi uchun nonushta va tushlik qiymatiga 10 tiyindan 20 tiyingacha qo'shimcha to'lovlar amalga oshirilgan.

Farg'ona viloyat ijroiya qo'mitasi, O'zbekiston KP MKning 1989-yil 23-noyabrdagi yuqorida ko'rsatilgan qarorini rivojlantirish maqsadida, istisno tariqasida, bozor fondi hisobidan maktablar va maktabgacha bolalar muassasalari

uchun yumshoq inventarlar, idish-tovoqlar, madaniy-maishiy va sport anjomlarini naqd pulsiz hisob-kitob orqali sotib olishga; chinni zavodi va mebel fabrikalarining rejadan tashqari mahsulotlarini xalq ta'limi va sog'liqni saqlash muassasalariga sotishga; shuningdek, viloyat bosmaxonalariga kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan, kamqonlik bilan og'rikan homilador ayollarni bepul ovqatlantirish uchun talonlar chop etishga ruxsat berdi.

Ushbu muhim siyosiy masalaga hamma joyda ham yetarli darajada mas'uliyat va to'g'ri tushunish bilan yondashilmagan. Jumladan, 1990-yilning 9-yanvarida Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi 11 ta maktabga sut yetkazib berilmagan, Navoiy shahridagi 6-, 8- va 9-sonli maktablarda esa elektr energiyasi uzilib qolgani sababli nonushtalar tashkil etilmagan, umumiy ovqatlanish tashkilotlari esa bazaviy oshxonalaridan nonushtalarni yetkazib berishni yo'lga qo'ymadi [12.117].

Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi va Shahrisabz tumanlaridagi ayrim maktablarda ham oziq-ovqat mahsulotlari yo'qligi sababli o'quvchilar nonushta bilan ta'minlanmadi, ushbu viloyatning Qamashi va Kitob tumanlaridagi maktablarga esa sut mahsulotlari o'z vaqtida va yetarli miqdorda yetkazib berilmadi.

Viloyat ijroiya qo'mitalari asosiy e'tiborni oshxona va bufetlari bo'lmagan, chekka hamda borish qiyin bo'lgan hududlarda joylashgan maktablarga qaratishlari lozim edi (bunday maktablar respublikadagi umumiy maktablar sonining 6,2 foizini tashkil etadi). Biroq Surxondaryo viloyati Sariosiyo va Denov tumanlari maktablarida o'tkazilgan tekshiruv shuni ko'rsatdiki, ob-havoning noqulayligi bahona qilinib, yanvar oyining birinchi o'n kunligida oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berilmagan va 9 yanvardan 13 yanvargacha bo'lgan davrda o'quvchilar nonushtasiz qolgan.

Maktab o'quvchilarini bepul ovqatlantirishni tashkil etishni tekshirish bilan bir qatorda, ishchi guruhlar Dasturning boshqa bandlari bajarilishini ham o'rgandilar. Jumladan, hamma joyda ijarada yashovchi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalariga 10 so'm miqdorida qo'shimcha to'lov solish, o'qituvchilarning shahar transportida bepul yurishini tashkil etish, uy-joy sharoitlarini yaxshilashga o'ta muhtoj bo'lgan o'qituvchilar, sog'liqni saqlash xodimlari, shu jumladan yosh mutaxassislar ro'yxatini shakllantirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Ayniqsa, 1970-1980-yillardagi demografik va tibbiy ko'rsatkichlar O'zbekistonda 0-2 yoshgacha bo'lgan bolalar va go'daklar o'limi Ittifoqning boshqa respublikalariga nisbatan bir necha barobar yuqori bo'lganini ko'rsatadi.



Respublikaning qator viloyatlaridagi ichimlik suvi ta'minotining og'ir ahvoli, vodoprovod va kolonkalarining ishlamasligi aholining ariq va hovuz suvlaridan foydalanishiga va oqibatda yana yuqumli kasalliklarning tarqalishiga asosiy sabab bo'lgan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'zbekiston milliy arxivi (O'z MA) , R-837 fond, 41-ro'yxat, 3592-ish
- 2.Туляганов К.С., Мирзамухамудов М.А., Мирзаев Д.М. Достижения и перспективы педиатрии в Узбекистане. – Т, 1973.
- 3.Маҳмудова Н.М. Ўзбекистонда оналар ва болалар соғлигини сақлаш. – Тошкент, 1971.
- 4.O'zbekiston ilmiy-texnikaviy va tibbiy hujjatlari Milliy arxivi (O'z ITTH MA), 40-fond, 4-ro'yxat, 42-ish.
- 5.O'zbekiston ilmiy-texnikaviy va tibbiy hujjatlari Milliy arxivi (O'z ITTH MA), 40-fond, 4-ro'yxat, 51-ish.
- 6.Народное хозяйство Узбекской ССР за 70 лет. Юбилейный статистический сборник. – Москва: Финансы и статистика, 1978.
- 7.O'zbekiston milliy arxivi (O'z MA) , R-837 fond, 41-ro'yxat, 5627-ish
- 8.O'zbekiston milliy arxivi (O'z MA) , R-837 fond, 41-ro'yxat, 6238-ish
- 9.Расулова Н.Ф. История развития педиатрии в Узбекистане. Автореф...дисс.на соис.уч.степ.канд.мед.наук. – Ташкент, 2006.
- 10.Касимова Д.А. Медико-социальные аспекты детской инвалидности и пути её снижения (по материалам г.Ташкента). автореф...дисс. на соис. уч.степ. канд.мед.наук. – Ташкент, 2012.
- 11.Рустамова Х.Э., Стожарова Н.К., Абдурашитова Ш.А, Нурмаматова К.Ч. История медицины. Учебное пособие. – O'zkitobsavdo, 2020
- 12.O'zbekiston milliy arxivi (O'z MA) , R-837 fond, 41-ro'yxat, 7900-ish

